



## XOTIN-QIZLAR TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Bosimova Aziza Ulug'bek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika mutaxassislig magistranti  
azizalafina@gmail.com, +93-965-24-24

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xotin-qizlar ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, qizlarning mustaqil fikrlash, ijodiy salohiyat va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni ko'rsatib berilgan. Xorijiy tajribalar hamda O'zbekiston ta'lim tizimida xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilingan va kelgusida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xotin-qizlar ta'limi, innovatsion pedagogika, interfaol metodlar, loyiha asosida ta'lim, AKT, gender tenglik, ta'lim samaradorligi, ijodkorlik, motivatsiya.

## ЖЕНЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЕ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

**Аннотация:** В данной статье проанализировано значение инновационных педагогических подходов в образовании женщин, а также вопросы их практического применения. Освещена эффективность использования интерактивных методов, проектного обучения и информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе. Кроме того, показана роль современных педагогических технологий в развитии у девушек самостоятельного мышления, творческого потенциала и социальной активности. Рассмотрен зарубежный опыт, а также возможности, создаваемые в системе образования Узбекистана для женщин, и даны рекомендации по их дальнейшему применению.

**Ключевые слова:** образование женщин, инновационная педагогика, интерактивные методы, проектное обучение, ИКТ, гендерное равенство, эффективность образования, креативность, мотивация.

## INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES IN WOMEN'S EDUCATION

**Abstract:** This article analyzes the significance of innovative pedagogical approaches in women's education and issues related to their practical implementation. The effectiveness of applying interactive methods, project-based learning, and information and communication technologies in the educational process is highlighted. Furthermore, the role of modern pedagogical technologies in fostering independent thinking, creative potential, and social activity among female students is demonstrated. International



experiences, as well as the opportunities created in Uzbekistan's education system for women, are examined, and recommendations for their future application are provided.

**Keywords:** women's education, innovative pedagogy, interactive methods, project-based learning, ICT, gender equality, educational effectiveness, creativity, motivation.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarning bilim olishi, ularning ta'lim jarayonida faol ishtiroki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi (UNESCO, 2022). Pedagogika fanida gender masalalari, xotin-qizlarni o'qitishning samarali metodlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda (To'xtaxo'jayeva, 2020).

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Avvalo, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish xotin-qizlarning motivatsiyasini oshiradi va ularni faol o'quvchi-subekti sifatida shakllantiradi. Masalan, loyiha usuli, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qizlarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Hasanboyeva & Abduqodirova, 2018). Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda psixologik-pedagogik muhitning o'rnini beqiyosdir (Karimova & Jo'raeva, 2019).

Pedagogik yondashuv: tarbiya va ta'limda ayol shaxsini shakllantirish Pedagogik nuqtai nazardan, xotin-qizlar faolligini oshirish, eng avvalo, ularning shaxs sifatida o'ziga ishonchini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatini uyg'otish orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdan boshlab, o'quvchi-qizlarda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish muhim:

- Liderlik ko'nikmalari;
- Ijodiy fikrlash;
- Mustaqil qaror qabul qilish;
- Tashabbus ko'rsatish;
- Jamoviy ishlash madaniyati.

Ta'lim va malaka – ayol faolligining poydevori. Xotin-qizlarning faolligini ta'minlash, eng avvalo, ularning sifatli ta'lim olishini yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Bilimli ayol – o'z oilasiga, mahallasiga va jamiyatiga foydali bo'lishi mumkin. Shu bois ta'lim tizimida xotin-qizlar uchun qo'shimcha grantlar, stipendiyalar, kasb-hunar markazlari va zamonaviy IT-ko'nikmalarni o'rgatuvchi kurslarni tashkil etish zarur.

Ayniqsa, qishloq joylardagi xotin-qizlar uchun onlayn ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik – huquqiy va iqtisodiy mustaqillikdan boshlanadi.

Ayollarning ijtimoiy hayotda faol bo'lishi, ularning iqtisodiy va huquqiy mustaqillik darajasiga bog'liq. Ular o'z fikrini erkin bildirishi, tashabbus ko'rsatishi va turli sohalarda rahbarlik lavozimlarida ishlashi uchun imkoniyatlar yaratilishi kerak.

Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish mumkin. (Yunusova & Roziya)

Qizlar uchun qulay sharoit yaratish, ularni rag'batlantirish, mentorlik dasturlarini joriy etish — ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir (Jalilova, 2022).

Xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoniga ayollarni jalb etish nafaqat individual salohiyatni rivojlantiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ham mustahkamlaydi (OECD, 2021; World Bank, 2020). O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xotin-qizlarning oliy ta'limdagi qamrovi sezilarli darajada oshdi (Yuldasheva, 2021).

Xususan, davlat tomonidan qizlar uchun alohida kvotalar joriy etilishi, turli stipendiya va grantlarning kengayishi ularning oliy ta'limga kirish imkoniyatini keskin oshirdi (President of the Republic of Uzbekistan, 2021).

#### XULOSA.

Demak, xotin-qizlar ta'limida pedagogik yondashuvlarni yangilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta'lim muhitini takomillashtirish nafaqat individual rivojlanishni, balki butun jamiyatning taraqqiyotini ta'minlaydi (UNESCO, 2022). Shu bois kelajakda ta'lim siyosatida xotin-qizlar uchun qulay sharoit yaratish, pedagogik metodlarni takomillashtirish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi (Constitution of the Republic of Uzbekistan, 2023).

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023). Tashkent: Uzbekistan.
2. President of the Republic of Uzbekistan. (2021, February 2). Decree No. PF-6269 on improving state policy in the field of support for women and strengthening the family. Tashkent.
3. Karimova, V. M., & Jo'raeva, M. (2019). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti [Theory and practice of pedagogy]. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. To'xtaxo'jayeva, M. (2020). Gender pedagogikasi asoslari [Fundamentals of gender pedagogy]. Tashkent: O'qituvchi.
5. Hasanboyeva, O., & Abduqodirova, G. (2018). Ta'lim jarayonida interfaol metodlar [Interactive methods in the learning process]. Tashkent: Ilm ziyo.
6. UNESCO. (2022). Global education monitoring report 2022: Gender equality in education. Paris: UNESCO Publishing.
7. OECD. (2021). Bridging the digital gender divide. Paris: OECD Publishing.
8. Jalilova, Z. (2022). Ayollar ta'limida innovatsion yondashuvlar [Innovative approaches in women's education]. Pedagogik mahorat, 3, 45–52.
9. Yuldasheva, D. (2021). O'zbekistonda qizlar ta'limi: muammolar va imkoniyatlar [Girls' education in Uzbekistan: Problems and opportunities]. Oliy ta'lim muammolari, 2, 60–66.
10. World Bank. (2020). Women, education and development. Washington, DC: World Bank.



II. Yunusova Chulpanoy Abierovna; Òralova Roziya Abdukarim qizi. XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGLAR VA PEDAGOGLAR O'RNI. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 24-26.